

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ANVAROV NOZIMJON MAXSUDBEK O‘G‘LI

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR KORXONALARINI
KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavleniye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po
ekonomiceskim naukam**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li

Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....3

Анваров Нозимжон Махсудбек угли

Совершенствование практики кредитования предприятий реального сектора коммерческими банками29

Anvarov Nozimjon Makhsudbek ugli

Improving the practice of lending to real-sector enterprises by commercial banks57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список обубликованных работ

List of published works.....62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ANVAROV NOZIMJON MAXSUDBEK O‘G‘LI

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR KORXONALARINI
KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan
B2019.2.PhD/Iqt940 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Komolov Odiljon Sayfidinovich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimardonov Ilxom Muzrabshoxovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Razzaqov Jasur Xamrabo耶evich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universtiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» soat _____ dari majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertasiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universtiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dari _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash orqali o‘z daromadlarini oshirish bilan bir qatorda ishlab chiqarish faoliyatining uzlusizligi ta’minlamoqda. Faol kreditlash orqali ortirilgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, bank kredit portfelining sifati, diversifikatsiya darajasi va shu orqali rentabelligi yuqori bo‘lgan har bir bank mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi drayverlar vazifasini bajaradi. “Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) 2024-yilda Markaziy Osiyoga sarmoya kiritish bo‘yicha rekord darajaga yetdi va mintaqaning oltita davlatidagi 121 ta loyihaga 2,26 mlrd. yevro mablag‘ kiritdi. Bu 2023-yilda investitsiya qilinganidan deyarli ikki baravar ko‘pdir. Bundan tashqari, YETTB qo‘shma moliyachilardan 784 million yevro jalb qildi va mintaqa iqtisodiyotiga jami sarmoyani 3 milliard yevrodan oshib ketdi”¹. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun banklar tomonidan joriy etilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, kreditlash risklarini boshqarishning ilg‘or usullari jahonda keng tarqalgan.

Jahonda va rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining real sektorni kreditlash amaliyoti doimo takomillashib bormoqda. Iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda tijorat banklarida kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish va yangi kredit mahsulotlarini mijozlarga o‘z vaqtida hamda nisbatan arzon va sifatli ta’minalash, taqdim etilayotgan kreditlar mijozning birlamchi talabi bilan o‘z vaqtida berilishi, o‘z navbatida uning qaytarilishi, bu jarayonda kredit to‘lovlari bilan bog‘liq muammoli holatlar va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog‘liq holatlar, real sektor korxonalarini kreditlashning zamonaviy shakllarini tadqiq qilish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash iqtisodiy o‘sishning asosiy yetakchi kuchlaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-2024 yillarda O‘zbekistonning «Barqaror rivojlanish strategiyasi» doirasida iqtisodiyotning real sektorini kreditlashni kengaytirish, iqtisodiy o‘sishning asosiy indikatorlaridan biri sifatida e’tirof etilgan². “2023-yil yakunlariga ko‘ra, real sektorni kreditlashda banklarning kredit portfeli 25 foizga o‘sdi, ammo bu o‘sishning qisman cheklanganligi banklar tomonidan yuzaga kelgan risklar va kreditlar sifatining pastligi bilan izohlanadi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan real sektorni kreditlash amaliyotini takomillashtirish, yangi moliyaviy instrumentlarni tatbiq etish va risklarni boshqarish mexanizmlarini samarali joriy etishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. 2025-yilda bu 300 trln. so‘mdan oshishi proqnoz qilinmoqda”³. Shu bilan birga, kreditlash jarayonidagi ko‘plab qiyinchiliklar, jumladan, real sektor korxonalarining to‘lov

¹ <https://www.ebrd.com/home/news-and-events/publications/financial-report/financial-report-2024.html>

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son <https://lex.uz/docs/-5870397>

³ <https://cbu.uz/e/2024yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>

qobiliyatiga bo‘lgan ishonchsizlik, banklarning kredit siyosatidagi noaniqliklar, yuqori foiz stavkalari, kredit ta’minti masalalari va xavf omillari, bu sohada samarali va barqaror rivojlanishni ta’minlashda jiddiy to’siqlar yaratadi. Shuningdek, banklarning real sektor korxonalariga taqdim etadigan moliyaviy resurslari ko‘pincha iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda juda cheklangan bo‘lib, bu holat esa korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish kabi muhim jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagи PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-martdagи PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiy lashtirishni jadallashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va tijorat banklarini real sektor korxonalarini kreditlashga qaratilgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlashning alohida olingan nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Staxnyuk, A.Joli, V.Safaryan, D.Savinova, D.Geyl, J.Sinki, J.Shanel-Reyno, Y.Shumpeter, M.Yunus va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.Raxmanov, M.Rustamov, J.Isakov, I.Alimardonov, U.Gafurov, A.Norov, F.Xolmamatov, O.Ergashevlar⁵ va

⁴Стахнюк А.В. Малый бизнес: проблема доступности кредитов//Деньги и кредит. – Москва, 2020. – №3. – С. 23-26.; Сафарян В.Р. Факторинг как источник финансирования малых предприятий//Деньги и кредит. – Москва, 2023. – №2. – С. 71-73.; Савинова Д. В. О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес // Деньги и кредит. – Москва, 2019. – № 5. – С. 59-63.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 1018 с.; Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2010. – 307 с.

⁵ Рахманов И.Х. Ўзбекистон Республикасида микромолиявий хизматларни такомиллаштириш ўўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 19 б.; Рустамов М.С., Кичик бизнес субъектларини кредитлаш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – 28 б.; Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 28 б.; Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. Дис. ... и.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.; Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизmlарини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 72 б.; Норов А.Р. Тижорат банкларининг тадбиркорлик субъектларини кредитлаш методологиясини такомиллаштириш DSc илм. дараж. олиш учун

boshqalarning ilmiy ishlarida tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning ayrim jihatlari ilmiy-nazariy va amaliy tahlil qilingan.

Ammo real sektor korxonalarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish masalasi O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan mustaqil dissertatsion tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'limga muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni proqnozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida real sektor korxonalar subyektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

real sektor korxonalar subyektlarini kreditlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish hamda ularning amaliy ahamiyatini baholashga xizmat qiladigan xulosalarni shakllantirish;

real sektor korxonalar kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasidan O'zbekiston Respublikasi amaliyotida foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

respublikamizda real sektor korxonalar subyektlarini kreditlashning uslubiy va huquqiy asoslarining mavjud holatini tahlil qilish va unga baho berish;

tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalar subyektlarini kreditlashning amaliy asoslarini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

real sektor korxonalar subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

real sektor korxonalar subyektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish;

real sektor korxonalar subyektlarini kreditlash hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajasiga baho berish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining real sektor korxonalar subyektlari faoliyatini kreditlash amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini real sektor korxonalar subyektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik tadqiqot, ekspert baholash, statistik va

ёзилган дисс. автореф. – Тошкент, 2022. 8-9 б.; Холмаматов Ф.К. Тижорат банкларининг кредитлаш амалийтини таомиллаштириш. PhD. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Тошкент, 2019. 8-9 б., Эргашев О.Т. Ўзбекистонда кичик бизнес субъектларини ривожлантиришнинг молия-кредит механизмини таомиллаштириш иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори PhD диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 60 б.

iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliqi quyidagilardan iborat:

banklar tomonidan real sektor korxonalariga maxsus kredit mahsuloti hisoblangan “yashil moliya” kreditlarini taqdim etish orqali ularning atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqaror rivojlanishni qo’llab-quvvatlashga qo’shayotgan hissasini rag’batlantirish taklifi asoslangan;

qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish faoliyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kredit shartlarini soddalashtirish va moslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash asoslangan;

tijorat banklarining real sektor korxonalarini sun’iy intellekt (AI) va mashina o‘rganish (ML) texnologiyalari tahlil prognozlari asosida baholash orqali ularning kredit olish ehtimolini 10-15 foiz darajada oshirish imkoniyati asoslab berilgan;

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiluvchi tijorat banklari kreditlari hajmining bank depozitlari foiz stavkasi va muammoli kreditlar hajmi bilan o‘zaro ta’sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030 yilga qadar tijorat banklari kreditlari hajmi o‘sish tendensiyasining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi past bo‘lgan sharoitda real sektor korxonalar subyektlari pul oqimining barqarorligini ta’minlash yo‘llari taklif qilingan;

tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalar subyektlarini overdraft va kontokorrent shakllarida kreditlash tartibi, yuzaga keladigan kredit riskini pasaytirish yo‘llari, joriy hisobraqamning debetli va kreditli qoldig‘iga foizlar to‘lash mexanizmini maxsus yo‘riqnomada aks ettirishning zarurligi asoslab berilgan;

muddati o‘tgan debitor qarzdorlik va zarar ko‘rib ishlayotgan real sektor korxonalar subyektlarining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilmaslik, faktoring kreditlarining muddatini sotilgan tovarlar uchun to‘lov summasini undirish muddatiga mos bo‘lishini ta’minlash yo‘li bilan kichik biznes subyektlarini faktoring asosida kreditlash hajmini oshirishning zarurligi asoslab berilgan;

tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlashda hajmining o‘sishini ARDL ekonometrik model asosida uzoq muddatli darlarda prognoz qilish taklifi asoslangan.

Olingan natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqot jarayonida olingan natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning real sektori korxonalarini kreditlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish, ekspert baholash natijalariga hamda statistik va amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan kelgusida real sektor korxonalarini kreditlash mexanizmini takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda

foydanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublikada real sektor korxonalarini kreditlash samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda qo'llashning mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash amaliyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

banklar tomonidan real sektor korxonalariga maxsus kredit mahsuloti hisoblangan "yashil moliya" kreditlarini taqdim etish orqali ularning atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qo'shayotgan hissasini rag'batlantirish taklifi "Mikrokreditbank" ATBning strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATning 2025-yil 15-maydag'i №05-12/7208-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida bankning yashil moliya kreditlari, ayniqsa yangi texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligi va ekologik infrastrukturani rivojlantirishga qaratilgan korxonalar uchun 15-20 foiz darajada bank foiz stavkalarini pasaytiradi va bu orqali real sektor korxonalari uchun kredit olish imkoniyatlari kengayadi;

qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kredit shartlarini soddalashtirish va moslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash taklifi "Mikrokreditbank" ATBning "2024-yil uchun Biznes-rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATning 2025-yil 15-maydag'i №05-12/7208-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida bankda mijozning faoliyat turini inobatga olgan holda unga moslashtirilgan kredit mahsulotlari yo'naltirish, mijozlarga foiz stavkalari pasaytirish yoki kredit muddati bo'yicha imtiyozlar taqdim etish orqali real sektor korxonalarining yangi bozorlar va xizmatlar yaratish imkoniyati yaratilgan;

tijorat banklarining real sektor korxonalarini sun'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish (ML) texnologiyalari tahlil prognozlari asosida baholash orqali ularning kredit olish ehtimolini 10-15 foiz darajada oshirish imkoniyati asoslab berilgan to'g'risidagi taklifi "Mikrokreditbank" ATBning 2024-yil uchun "Kredit siyosati"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATning 2025-yil 15-maydag'i №05-12/7208-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida kredit qarorlarini qabul qilishning yanada shaffof va aniq tizimini yaratish imkoniyati oshirilgan. Kredit so'rovi va qarorlar tarixiga asoslanib, banklar kredit so'rovlarini 80% darajada avtomatik tarzda tahlil qilishi imkoniyatiga ega. Mashina o'rganish algoritmlari yordamida kredit risklari, korxonaning moliyaviy holati, kredit tarixidan kelib chiqqan holda so'rovni tezda ko'rib chiqish va qaror chiqarish jarayoni tezlashadi va aniqroq bo'ladi;

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiluvchi tijorat banklari kreditlari hajmining bank depozitlari foiz stavkasi va muammoli kreditlar hajmi bilan o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar

ishlab chiqilgan tijorat banklari kreditlari hajmi o'sish tendensiyasining prognoz ko'rsatkichlaridan "Mikrokreditbank" ATBning strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Mikrokreditbank" ATning 2025-yil 15-maydag'i №05-12/7208-sod ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiluvchi tijorat banklari kreditlari hajmining bank depozitlari foiz stavkasi va muammoli kreditlar hajmi o'rtasidagi maqbul nisbatlarni ta'minlash imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banklari tomonidan real sector korxonalarini kreditlashning iqtisodiy mohiyati**” deb nomlangan birinchi bobida, Real sektor iqtisodiyoti tushunchasi, tarkibiy tuzilishining mazmun-mohiyati va O‘zbekistonda real sektor korxonalarini faoliyatini takomillashtirishda moliya-kredit mexanizmidan foydalanish tadqiq qilingan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy natija va xulosalar shakllantirilgan.

Real sektor iqtisodiyoti tarkibi – bu milliy iqtisodiyotdagи tovar va xizmatlar ko‘rsatuvchi turli tarmoq va sohalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro aloqada va bog‘liqlikda iqtisodiy faoliyatda bo‘ladilar. Real sektor iqtisodiyoti ichki va tashqi bozorga ne’matlar ishlab chiqaruvchi, zamon va bozor talabidagi o‘zgarishlarga nisbatan moslanuvchan iqtisodiy subyektlar faoliyati yig‘indisidan iboratdir.

Real sektoring iqtisodiyotdagи o‘rnı va ahamiyati to‘g‘risida “Real sektorni rivojlantirish, uning salohiyatini kengaytirish – bu bizning iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minalash va xalqimizning turmush darajasini oshirishda muhim shartdir” deb prezidentimiz tomonidan e’tirof etishining o‘zi ham soha qanchalik muhimligidan dalolat berib turibdi. Real sektor iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlab chiqarish jarayonlarini ta’minalaydi va mamlakatning YIM ni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 70 trln. so‘mdan oshdi. Shundan 55 foizi sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalariga yo‘naltirilgan. Bu kreditlar real sektoring modernizatsiya qilinishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va mahsulotlar sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy moliyaviy resurslarga aylanishi mumkin. Biroq, banklar tomonidan real sektorni moliyalashtirishda haligacha bir qator muammolar mavjud, masalan, kreditlarning yuqori foiz stavkalari, qarzdorlikni qaytarishdagi qiyinchiliklar va banklarning risklarni boshqarishdagi o‘ziga xos cheklari.

1-jadval

Tadbirkorlik faoliyatini toifalar asosida rivojlantirish⁶


Toifalar	Ta’sischilar	Daromadi, mlrd.so‘m
Xususiy tadbirkorlik	Jismoniy shaxslar	1
Kichik tadbirkorlik	Yuridik shaxslar	1-10
O‘rtा tadbirkorlik	-	10-100
Yirik tadbirkorlik	-	100 dan yuqori

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini mezonlar asosida toifalarga ajratish, shuningdek ularni soliqqa tortish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi

⁶ Adabiyotlar sharhi asosida muallif ishlanmasi

tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatichilagini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 10-fevraldag'i PF-21-sod Farmonida belgilangan.

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldiga bir qator yangi vazifalarni qo'ymoqda. Milliy iqtisodiyotning dunyo bozorida o'z o'rnini topishi, ya'ni ma'lum mavqeni egallashi uchun doimiy ravishda real sektor korxonalarini texnik va texnologik jihatdan zamonaviylashtirib borish lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida texnik va texnologik yangilanishni amalga oshirish kerak. Bunga, ishlab chiqarishda boshqaruvning yangi usullarini hamda fan va texnika yutuqlarini doimiy ravishda joriy etish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi mamlakatda moddiy ishlab chiqarish sohalari uchun yaratilgan huquqiy-meyoriy sharoit bilan uzviy bog'liqdir. YA'ni, mahalliy va xorijiy investitsion mablag'larni real sektorga jalb etish uchun investorlarga huquqiy kafolat berilishi va uning ijrosini davlat tomonidan kafolatlanishi lozim. 1-rasm davlat tomonidan iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarni yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.



1-rasm. Bank resurslarining aylanishi⁷

Tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotining asosiy moliyaviy institutlari bo'lib, ular real sektor korxonalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shamdi. Tijorat banklari tomonidan real sektorni qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmi – kreditlash bo'lib, u orqali banklar kichik va o'rta korxonalarga zarur moliyaviy resurslarni ajratadi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, yangi mahsulotlar yaratish va xizmatlar sifatini oshirishga imkon beradi.

Real sektor korxonalarini kreditlash yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari ko'plab uchrab turadi. Xususan: M.Yunusning fikriga ko'ra, «yendi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak»⁸. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi.

A.Busigin tadbirkorlikni «foyda olish maqsadidagi iqtisodiy faollikning maxsus turi sifatida ta'riflab, tadbirkorlik faoliyatining maqsadi deb, shunday tovarni ishlab chiqarish va sotishni tushunadiki, u bozorda talabga ega bo'lib, tadbirkorga foyda keltirishi lozim. U tadbirkorlikni yangi narsani yaratish jarayoni sifatida, tadbirkorni esa bularning barchasiga zaruriy vaqt va kuch sarflovchi, barcha moliyaviy, psixologik va


⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ <https://tfi.uz/storage/doc-pages/220/orginal/88498119d5209420db8b85a7bc56f89276fa202d30e7.pdf>

ijtimoiy tavakkalchilikni zimmasiga oluvchi, evaziga pul va erishgan muvaffaqiyatdan qoniqish hosil qiluvchi inson»⁹ sifatida qaraydi.

Italiyalik tadqiqotchi Kelvin Millerning fikricha «qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlarni kreditlash boshqa sohaga nisbatan yuqori riskka ega»¹⁰ deb hisoblaydi. Sababi qishloq xo‘jaligi sohasiga iqlim o‘zgarishi, ishchilarning qo‘nimsizligi kuchli ta’sir ko‘rsatadi deb tadqiqotlarini amalga oshirgan.

O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda “yashil” moliya va “yashil” iqtisodiyotni takomillashtirish zarurligi haqida mahalliy iqtisodchi hamda moliya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar S. Nazarov va A. Karimovlarning tadqiqodlarida O‘zbekiston sharoyitida “yashil” moliyanı rivojlantirish uchun xususiy sektorni jalb qilish, xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish hamda tijorat banklarini qo‘llab-quvvatlash orqali “yashil” moliyalashtirishni jadallashtirish mumkinligi¹¹ haqida fikrlar bildirgan.



2-rasm. Yashil molianing asosiy segmentlari¹²

2-rasmida sxematik tuzilma yashil molianing ko‘p qirrali va kompleks xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har bir segment moliya tizimi orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashda o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Shu bois, yashil molianing tizimli yondashuvi nafaqat milliy, balki global darajada ham barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.


Quyida keltirilgan 3-rasmida “Yashil” moliya turli moliyaviy vositalarni o‘z ichiga oladi, jumladan, “yashil” obligatsiyalar, “yashil” kreditlar va “yashil” aksiyalar. Ushbu vositalar ekologik toza loyihalar va bizneslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. “Yashil” moliya bir qancha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, mikro-moliya, barqaror fondlar, ijtimoiy manfaat keltiruvchi aktivlar, faol aksiyadorlik, barqaror rivojlanish kreditlari va moliyaviy tizimdagи o‘zgarishlar. “Yashil” moliya butun dunyo bo‘ylab barqaror korxonalar va kompaniyalarini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

⁹ <https://www.lektsii.com/2-129457.html> А.В.Бусыгин. Предпринимательство. М.: «ИНФРА-М», 1997, с.46-49.

¹⁰ Find Success in Your Business with Kevin Miller and All Approach. New York, / ACCESSWIRE / May 31, 2020.


11 Nazarov S., Karimov A. “Yashil iqtisodiyot va moliya: O‘zbekiston tajribasi”, Toshkent, 2022.

¹² Muallif ishlansması



3-rasm. Yashil moliyalashtirishda banklar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari¹³

Paul Hawken va boshqa tadqiqotchilar barqaror rivojlanishni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg‘unligi deb ta’riflaydi¹⁴. Shunday qilib, yashil kreditlar ushbu “uchta ustun” -people, planet, profit-o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.




4-rasm. Yashil kreditlarning Insonlar, Planeta va daromad o‘rtasidagi ma’nfatdorlik sxemasi¹⁵

Nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, yashil kreditlar moliyaviy samaradorlik va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoxda. Biroq, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun iqtisodiy, institutsional va siyosiy omillar birgalikda tahlil qilinishi zarur. Ushbu nazariy yondashuvlar ushbu tadqiqot uchun asosiy metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

¹³ Muallif ishlanmasi

¹⁴ Hawken, P., 2021. *Regeneration: Ending the climate crisis in one generation*. Penguin.

¹⁵ Muallif ishlanmasi



5-rasm. YaIM, umumiy va yashil kreditlarning yillar kesimidagi o'sish dinamikasi (%)¹⁶

5-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadi, 2021-yildan boshlab umumiy iqtisodiy tiklanish fonida barcha uch ko'rsatkichda qayta o'sish tendensiyasi boshlanadi. Xususan, 2022-2024 yillar oralig'ida yashil kreditlarning o'sish sur'atlari YaIMning yillik o'sish sur'atlariga yaqinlashgan. Bu esa iqtisodiyotning "yashil" yo'nalishga moslashayotganini, ekologik barqarorlik tamoyillarining real sektor faoliyatida tobora muhim o'rinni egallayotganini anglatadi. Shuningdek, bu holat O'zbekistonda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" amalda natija berayotganini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllanishining huquqiy baza yaratildi, bozor munosabatlarining doimo chuqurlashib borishini, ijtimoiy-iqtisodiy holatning tez o'zgaruvchanligini hisobga olib, uni kuchli ijtimoiy-iqtisodiy tarafdan huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirilmoqda va bu borada Jaxon banking "Biznesni yuritish" dunyo reytingidagi o'rni ko'rsatib beriladi.

2-jadval

Jahon bankingning "Biznesni yuritish" dunyo reytingida O'zbekiston reytingi o'zgarishi indikatorlarning maqsadli ko'rsatkichlari¹⁷

№	Indikator	Boshlang'ich holat	Natijadorlik ko'rsatkichlar				
		2020 y.	2020 y.	2024 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1	Korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish	25	23	18	13	10	10
2	Qurilishga ruxsat olish	147	127	100	80	50	45
3	Yelektroyenergiya tizimiga ulanish	83	63	53	43	33	30
4	Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	75	55	45	35	25	20
5	Kredit olish	44	38	28	25	20	20
6	Minoritar investorlarni himoyalash	70	60	55	45	35	30
7	Soliq to'lash	138	118	98	78	50	35
8	Xalqaro savdo	165	135	100	80	50	40
9	Shartnomaga bajarilishini ta'minlash	38	33	28	25	20	20
10	To'lov qobiliyatini ta'minlash	77	67	57	50	45	40
11	Davlat xaridi	-	-	-	-	50	50
12	Mehnat bozorini tartibga solish	-	-	-	-	50	50

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁷ O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Jahon bankingning "Biznesni yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash bo'yicha meyoriy-huquqiy bazarining takomillashtirilishi va mikromoliyalash sohasining rivoji uchun qulay muhit yaratilishi natijasida hozirda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar, shu jumladan ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmining jadal sur'atlarda o'sishi kuzatilmog'ida.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida bank tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliya-viy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga "Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlashning zamonaviy holati va tahlili" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda real sektor korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar, iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tahlili amalga oshirilgan.

Real sektor korxonalarini iqtisodiyotning asosi bo'lib, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar, ayniqsa, kreditlar orqali ta'minlanadi. Kreditlar – real sektor korxonalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi bozorlar ochish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun muhim manba hisoblanadi.

3-jadval

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁸

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	O'sish sur'ati (2024/2021), %
Ajratilgan kreditlar hajmi (trln. so'm)	180.5	254.8	312.6	350.0	193.9
Imtiyozli kreditlar ulushi (%)	25.3	32.1	38.4	42.0	+16.7 punktga o'sish
O'rtacha kredit foiz stavkasi (%)	24.0	21.5	18.0	16.0	-8 punktga pasayish
Davlat subsidiyalari hajmi (trln. so'm)	3.2	5.8	8.4	10.0	312.5
Mikrokreditlar hajmi (trln. so'm)	5.5	8.2	12.0	15.0	272.7
Yeksporni moliyalashtirish (mln. dollar)	280	350	450	500	178.6
Garov ta'minotisiz kreditlar ulushi (%)	15.2	22.4	28.6	35.0	+19.8 punktga o'sish
Bank xizmatlari bilan qamrov darajasi (%)	68.5	75.3	82.7	88.0	+19.5 punktga o'sish

3-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021-2024 yillarda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Xususan:

- Ajratilgan kreditlar hajmi qariyb 2 barobarga oshgan;
- Imtiyozli kreditlar ulushi 16,7 foiz punktga ko'paygan;
- O'rtacha kredit foiz stavkasi 8 foiz punktga pasaygan;
- Davlat subsidiyalari hajmi 3 barobardan ko'proqqa oshgan;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bank xizmatlari bilan qamrov darajasi 19,5 foiz punktga ko‘tarilgan.

Kreditlar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda, ayniqsa, yangi ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish, texnologik yangilanishlar amalga oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan muhim moliyaviy vositadir. Korxonalarga taqdim etilgan kreditlar asosan quyidagi maqsadlar uchun ishlataladi:

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar:

1. Imtiyozli kreditlash dasturlari:

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 2 trillion so‘mlik maxsus kredit liniyasi ochildi;

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 1,5 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi;

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 3 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar berildi;

Start-up loyihalarni moliyalashtirish uchun 800 mlrd so‘mlik maxsus fond tashkil etildi.

2. Davlat subsidiyalari:

Yangi ishlab chiqarish uskunalari xarid qilish xarajatlarining 50 foizigacha qoplab berilmoqda;

Xalqaro sertifikatlar olish xarajatlarining 75 foizi subsidiya qilinmoqda;

Eksport kontraktlari bo‘yicha transport xarajatlarining 50 foizigacha qoplab berilmoqda.

3. Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali:

2023-yilda 1 200 ta eksportyor korxonaga 450 mln AQSH dollari miqdorida moliyaviy yordam ko‘rsatildi;

Eksport oldi moliyalashtirish mexanizmi joriy etilib, 300 ta loyiha qo‘llab-quvvatlandi;

Xorijiy bozorlarda marketing tadqiqotlari o‘tkazish xarajatlari qoplab berilmoqda.

4. Mikrokreditlash tizimi:

Nodavlat mikromoliya tashkilotlari soni 2024-yil boshiga 90 taga yetdi;

Mikrokreditlar hajmi 2023-yilda 12 trillion so‘mni tashkil etdi;

O‘rtacha mikrokredit stavkasi 24 foizdan 18 foizga tushirildi.

2024-yil boshiga kelib tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 350 trillion so‘mni tashkil etdi. Kreditlar tarkibida milliy valyutadagi kreditlar ulushi 85 foizga yetdi, muammoli kreditlar ulushi 2,5 foizgacha pasaydi, kredit olish uchun talab qilinadigan hujjatlar soni 2 baravarga qisqardi.

5. Raqamlı texnologiyalarning joriy etilishi:

Zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu tadbirkorlik faoliyatining raqamlashtirilishi bo‘lib, u biznes jarayonlarning samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarining sifatini yaxshilashga qaratilgan. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, davlat


xizmatlarini raqamlashtirish, soliq va bojxona tizimlarini modernizatsiya qilish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish hamda bank xizmatlarini transformatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

4-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi¹⁹ (tarmoqlar bo'yicha, mlrd. so'm)

Yillar	Jami	Shu jumladan:						
		Sanot	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiyligida ovqatlanish	Trans-t va kom.	Aholiga tadbirkorlik uchun	boshqalar
2020	48389,7	15402,1	6854,7	3167,7	9386,0	4390,6	3602,1	5586,5
2021	59552,1	14632,7	9814,5	3786,4	15536,9	2832,0	6830,0	6119,6
2022	69770,3	20312,1	6313,2	6944,2	17159,9	8943,0	9094,4	1003,6
2023	73009,4	19423,4	7879,4	6439,6	18905,2	6465,5	9495,2	4401,2
2024	92424,8	23590,0	14557,5	7010,3	30636,7	4600,8	6346,5	5683,1

4-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadi, 2020 va 2024 yillarda kichik va o'rta tadbirkorlikka ajratilgan kreditlar sektorlar bo'yicha taqsimoti. 2020-yilda sanoat va savdo sohalari yetakchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda savdo sohasining ulushi keskin oshganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va qurilish kreditlari ham izchil o'sgan, aholi uchun ajratilgan mikroqarzlar esa 2024-yilda qisqargan. Yuqoridaqgi raqamlar O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga tayanib, kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi umumiyligida trendni ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar kichik biznes va mikro-tadbirkorlik mamlakatda umumiyligida kreditlashning sezilarli qismini egallashni boshlaganini tasdiqlaydi.




6-rasm. "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes sub'yektlariga berilgan kreditlarning muddati bo'yicha tarkibi, jamiga nisbattan foizda²⁰

6-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadi, 2020-2024 yillar davomida Mikrokredit banki tomonidan kichik biznes sub'yektlariga berilgan kreditlarning tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2020-yilda qisqa muddatli kreditlar jami kredit portfelining 89,2 foizini, uzoq muddatli

¹⁹ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>

²⁰ www.mikrokreditbank.uz ma'lumotlari asosida tayorlandi.

kreditlar esa atigi 10,8 foizini tashkil etgan. Bu davrda bank faoliyatining asosiy e'tibori aylanma mablag'larni to'ldirish va tezkor moliyaviy ehtiyojlarni qoplashga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Biroq, keyingi yillarda kredit siyosatida muvozanatga erishish va kichik biznesning uzoq muddatli investitsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash tendensiyasi kuchaygan. 2021-yilda uzoq muddatli kreditlar ulushi 18,7 foizga yetgan bo'lsa, 2022-2023 yillarda bu ko'rsatkich mos ravishda 18,2 va 18,4 foiz atrofida barqarorlashgan. 2024-yilga kelib esa uzoq muddatli kreditlarning ulushi 22,4 foizgacha oshib, qisqa muddatli kreditlarning ulushi 77,6 foizgacha qisqargan. Ushbu o'zgarishlar bankning kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash strategiyasida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganini bildiradi. Xususan, uzoq muddatli kreditlarning ortishi kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda barqaror investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, qisqa muddatli kreditlarning ulushi kamaygan bo'lsa-da, ularning hajmi kichik biznesning likvidlik talablarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishda davom etmoqda.



7-rasm. Kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlarning sub'yektlar kesimidagi tarkibi (trln. so'mda)²¹

So'nggi yillarda bir tomonidan, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarib borishi, ikkinchi tomonidan, muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun bank kreditlariga bo'lgan talabi yuqoriligidcha qolmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab quvvatlash masalasi oxirgi yillarda barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida shakllandi. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-2024 yillar davomida moliyalash-tirish manbalarini diversifikatsiyalangan, ya'ni turli dasturlar va yo'nalishlar bo'yicha kredit ajratish ko'lami sezilarli kengaygan. Masalan, 2018-yilda jami 30,6 trln. so'm miqdorida kredit ajratilgan bo'lsa, shundan 6,2 trln. so'm

²¹ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>

mikrokreditlar, 668 mlrd. so‘m oilaviy tadbirkorlik dasturlari, 1,7 trln. so‘m aholi tadbirkorligi uchun yo‘naltirilgan. 2021-yilga kelib jami ajratilgan kreditlar hajmi 59,5 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan 15,1 trln. so‘m mikrokreditlar, 8,5 trln. so‘m oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo‘yicha, 4,9 trln. so‘m esa aholi tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. 2024-yilda esa ushbu tarkib sezilarli darajada kengayib, jami 92,4 trln. so‘m kredit ajratilgan, shundan 25 trln. so‘m mikrokreditlar, 13 trln. so‘m oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun, 9 trln. so‘m esa aholi tadbirkorligi faoliyatini rivojlantirish maqsadida yo‘naltirilgan.

Tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha 2023-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari hisobidan hududlarda 16 mingga yaqin loyihalar uchun 3,2 mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 2,7 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo‘naltirildi. Bunda, 1,2 mlrd dollar miqdorida mablag‘lar kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan. Hisobot yilda sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag‘larining yo‘naltirilishi qishloq xo‘jaligiga hamda xizmat ko‘rsatish sohalariga o‘tgan yilga nisbatan deyarli o‘zgarishsiz qolgan bo‘lsa, sanoatga 1,5 barobarga, qurilis hga 2,7 barobarga, savdo va umumiy ovqatlanish 1,6 barobarga va transport sohasiga 3,3 barobarga oshgan. Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzlucksiz ta‘minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo‘llab quvvatlash davom ettirilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarga jami ajratilgan kreditlar qoldig‘i 23,8 trln so‘mni tashkil qilgan. Ushbu kreditlarning 12,3 trln so‘mi issiqxona (52 foiz), 4,2 trln so‘mi chorvachilik (18 foiz), 2,4 trln so‘mi muzlatgichli omborxona (10 foiz), 2,0 trln so‘mi parrandachilik (8 foiz), 1,3 trln so‘mi bog‘dorchilik (5 foiz), 591 mlrd so‘mi baliqchilik (2 foiz), 557 mlrd so‘mi sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish (2 foiz) va 372 mlrd so‘mi go‘sht va sutni qayta ishslash loyihalarini (2 foiz) moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. 2023-yilda tijorat banklari tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining qariyb 39 mingdan ortiq loyihalarini moliyalashtirish uchun 53,7 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.

Kichik biznes subyektlarini kreditlash respublikamiz tijorat banklarining kreditlash faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, kichik biznes subyektlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolining yuqori ekanligi va ularni kreditlash jarayonini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llabquvvatlanayotganligi bilan izohlanadi. Hozirgi davrda respublikamiz banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning resurs manbai bo‘lib, banklarning jalb qilgan depozitlari, xorijiy kreditlar, davlat budgeti va budjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari hisoblanadi.

2024-2025 yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i va berilgan barcha turdagи kreditlar ko‘rsatilgan. Bularidan shuni ko‘rishimiz mumkunki 2023-yil jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig‘i 142445 mlrd. so‘mga teng, 2024-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 20 foizga oshganligini, ya’ni bu

172790 mlrd. so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Berilgan kreditlar orasidagi 2024-yil eng ko‘p ulushni tashkil qilgan kredit bu - Ipoteka krediti bo‘lib 65782 mlrd. so‘mni tashkil qilgan va bu o‘tgan yilgi ko‘rsatgichga nisbatan 17 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Shunisi qiziqarlikim ta’lim krediti o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga yuqori. Ammo jadval ma’lumotlariga ko‘ra i’stemol kreditlari 2024-yil 2023-yilga nisbatan 3 foizga qisqarganini ko‘ramiz va bu 41200 mlrd. so‘mni tashkil qilgani ko‘ramiz.

5-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi trend modelidan olingan prognozi, mlrd.so ‘mda²²

T/r	II	III	IV	V	IV	V
Yillar	2025-y.	2026-y.	2027-y.	2028-y.	2029-y.	2030-y.
KBXTning YAHMdagi ulushi	75062,6	97059,3	8909,7	125502,1	162279,9	209835,2

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlatimiz oldidagi eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, erksiz o‘zgaruvchiga tijorat banklaridan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajaritilgan kreditlar hajmi (loans), erkli o‘zgaruvchilar tadbirkorlik subyektlarining inflatsion kutilmalari (inflation expectation), Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi (interest rate), tijorat banklarining depozitlar hajmi (deposit), tijorat banklari kapitallari hajmi (capital), tijorat banklarining muammoli kreditlar (NPL), tijorat banklarining likvid aktivlarining hajmi (liquid assets), tijorat banklarining foydasi hajmi (profit) va tijorat banklari depozitlari foiz stavkasi (deposit interest rate) chorakli ma’lumotlari asosida 2020-2024 yilgacha bo‘lgan oyilik ko‘rsatkichlarni tanlagan holda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajaritilgan kreditlar hajmiga (loans) ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning murakkab ekonometrik usullarga asoslangan avtoregressiv taqsimlangan lag (ARDL) modeli bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi (yekonometrik tahlilning asosiy jadvallari ilova qismida berilgan).

Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajaritilgan kreditlar hajmiga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini quyidagi sodda matematik formula ko‘rinishida ifodalaymiz.

$$LOANS = (\text{inflation expectation}, \text{interest rate}, \text{deposit}, \text{capital}, \text{npl}, \text{liquid assets}, \text{profit}, \text{deposit interest rate}) \quad (1)$$

Bu yerda,

loans – kichik tadbirkorlik subyektlariga ajaritilgan kreditlar hajmi o‘zgarishi;

inflation expectation – tadbirkorlik subyektlarining inflatsion kutilmalari;

interest rate – bankning asosiy foiz stavkasi o‘zgarishi;

deposit – tijorat banklarining depozitlar hajmi o‘zgarishi;

capital – tijorat banklari kapitallari hajmi o‘zgarishilari;

npl – tijorat banklarining muammoli kreditlar o‘zgarishi;

liquid assets – tijorat banklarining likvid aktivlarining hajmi o‘zgarishi;

profit – tijorat banklarining foydasi hajmi o‘zgarishi;

²² Statistik ma’lumotlar tahlili asosida muallif hisob-kitoblari.

deposit interest rate – tijorat banklari depozitlari foiz stavkasi o‘zgarishi;

